

**XORIJIY MAMLAKATLARDA INKLYUZIV TA'LIM MODELLARI
TAHLILI**

Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarda inklyuziv ta'lim sohasida shakllangan asosiy modellar – nogironlikning tibbiy, ijtimoiy va ekologik modellari – ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot inklyuziv ta'limning tarixiy va konseptual asoslarini o'rganish, ushbu modellarning zamonaviy ta'lim tizimiga ta'sirini aniqlash maqsadida olib borilgan. Metodologiya sifatida qiyosiy tahlil va adabiyotlarni sistematik ko'rib chiqish usullaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tibbiy model individuallikni, ijtimoiy model esa strukturaviy to'siqlarni bartaraf etishni nazarda tutadi; ekologik tizimlar nazariyasi esa ikkala yondashuvni sintez qilib, inklyuzivlikni ko'p qatlamli muhit orqali tushuntiradi. Muhokama qismida ushbu modellarning O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ahamiyati va ularni milliy kontekstga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, tibbiy model, ijtimoiy model, ekologik tizimlar nazariyasi, nogironlik, ta'lim islohotlari, barqaror rivojlanish*

Аннотация. *В данной статье проводится научный анализ основных моделей инклюзивного образования, сформировавшихся в зарубежных странах: медицинской, социальной и экологической моделей инвалидности. Исследование направлено на изучение исторических и концептуальных основ инклюзивного образования и определение влияния этих моделей на современные образовательные системы. В качестве методологии использованы сравнительный анализ и систематический обзор литературы. Результаты показывают, что медицинская модель ориентирована на устранение индивидуальных нарушений, социальная – на преодоление структурных барьеров, а теория экологических систем синтезирует оба подхода, объясняя инклюзивность через многоуровневую среду. В разделе обсуждения рассматривается значимость этих моделей для системы образования Узбекистана и возможности их адаптации к национальному контексту.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, медицинская модель, социальная модель, теория экологических систем, инвалидность, реформа образования, устойчивое развитие*

Abstract. *This article presents a scientific analysis of the key models of inclusive education developed in foreign countries – the medical, social, and ecological models of disability. The study aims to examine the historical and conceptual foundations of inclusive education and to identify the influence of these models on contemporary educational systems. Comparative analysis and systematic literature review were employed as methodology. Results indicate that the medical model focuses on addressing individual impairments, the social model on removing structural barriers, and the ecological systems theory synthesises both approaches by explaining inclusion through a multi-layered*

environmental perspective. The discussion section addresses the relevance of these models for the Uzbekistan education system and the possibilities of adapting them to the national context.

Keywords: *inclusive education, medical model, social model, ecological systems theory, disability, education reform, sustainable development*

1. KIRISH (INTRODUCTION)

Globalashuv, integratsiyalashuv va demokratik qadriyatlarning ustuvorlashib borishi sharoitida barcha insonlar uchun teng imkoniyatlar va barqaror rivojlanishni ta'minlash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tenglik va rivojlanishni inklyuzivlikni ta'minlamasdan turib amalga oshirish amaldagi xalqaro standartlar nuqtayi nazaridan tasavvur qilish qiyin. Shu sababli, inklyuziv ta'limni ta'minlash jahon hamjamiyatining ustuvor maqsadlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Ta'limda inklyuzivlik barcha kishilarning – xususan, maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan shaxslarning – ta'lim olish uchun zarur shart-sharoitlardan bahramand bo'lishini nazarda tutadi. Jahon amaliyotida ushbu masalaning nazariy poydevori sifatida bir necha muhim modellar shakllangan bo'lib, ular inklyuziv ta'lim islohotlarini belgilashda kalit rol o'ynagan.

Ushbu tadqiqot muammosi shundan iboratki, zamonaviy inklyuziv ta'lim nazariyasi va amaliyotiga asos bo'lgan tibbiy, ijtimoiy va ekologik modellarning mohiyati, qo'llanilish doirasi va istiqboldagi ahamiyati yetarlicha o'rganilmagan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu modellarni tahlil qilish va ularning zamonaviy ta'lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlashdir.

Tadqiqot quyidagi muammolarni hal etishga qaratilgan: (1) inklyuziv ta'limning tarixiy va konseptual asoslarini aniqlash; (2) tibbiy, ijtimoiy va ekologik modellarning farqli jihatlari va ularning o'zaro munosabatini ochib berish; (3) ushbu modellarni O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirishning imkoniyatlarini baholash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, bir necha xalqaro modellar birinchi marotaba qiyosiy tahlil asosida o'zbek ilmiy jamoatchiligi uchun tizimli ravishda taqdim etilmoqda.

2. METODOLOGIYA (METHODS)

Tadqiqotda asosan ikkilamchi ma'lumotlar tahlili, ya'ni adabiyotlarni sistematik ko'rib chiqish (systematic literature review) va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Tadqiqot manbalari sifatida xalqaro akademik jurnallardagi maqolalar, monografiyalar va xalqaro tashkilotlarning me'yoriy hujjatlari tanlangan.

Tibbiy model bo'yicha asosiy manbalar sifatida Barnes (1996) va Zaks (2023) asarlari, ijtimoiy model bo'yicha Mike Oliver (2013) tadqiqotlari, ekologik tizimlar nazariyasi bo'yicha esa Urie Bronfenbrenner asarlari va El Zaatari va Maalouf (2022) tadqiqotlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, xalqaro veb-manbalar (LinkedIn, The Irish Times) ham muallif tomonidan ko'rib chiqilgan.

Tahlil jarayonida quyidagi bosqichlar amalga oshirilgan: (1) tegishli adabiyotlarni to'plash va saralash; (2) har bir modelning asosiy tamoyillarini ajratib ko'rsatish; (3) modellarni bir-biri bilan qiyosiy tahlil qilish; (4) zamonaviy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish

imkoniyatlarini baholash. Inklyuziv ta'lim sohasidagi global tendensiyalar va innovatsion yondashuvlar ham tahlilga kiritilgan.

Tadqiqotning geografik qamrovi asosan G'arb mamlakatlaridagi (Buyuk Britaniya, Fransiya, Shotlandiya) va Skandinaviya mintaqasidagi ta'lim amaliyotini qamrab oladi; zamonaviy texnologik innovatsiyalar va ularning inklyuziv ta'limga ta'siri ham ko'rib chiqilgan.

3. NATIJALAR (RESULTS)

3.1. Tibbiy model (Medical Model)

G'arb jamiyatlarida XIX asrdan boshlab hukmronlik qilgan tibbiy model nogironlikni shaxsning individual nuqsoni sifatida ko'radi va uni davolash yoki tuzatish lozim deb hisoblaydi. Ushbu modelga ko'ra, nogiron shaxslar jamiyatdagi "normal" me'yorlarga moslashishi kerak bo'lib, "normal" tushunchasini belgilash vakolati tibbiyot mutaxassislariga tegishli (Zaks, 2023). Barnes (1996) ta'kidlaganidek, bu yondashuv nogironlar duch kelayotgan qiyinchiliklarning mas'uliyatini jamiyat emas, balki shaxsning o'ziga yuklaydi.

Tarixan tibbiy model ta'lim, mehnat va ijtimoiy hayotda segregatsiya va kamsitishga olib kelgan. Psixiatr Thomas Szasz 1950-yillarda bu atamani kiritib, insoniy farqlilikni patologiya sifatida talqin qilishni tanqid qilgan. Shuni e'tiborga olish kerakki, muammo tibbiy yordamning o'zida emas, balki normallashtirish talabida ekanligi qayd etilmoqda (Zaks, 2023).

3.2. Ijtimoiy model (Social Model)

Tibbiy modelning cheklovlari tobora ko'proq tan olinishi natijasida ijtimoiy model shakllandi. Mike Oliver tomonidan ishlab chiqilgan ushbu model nogironlikni shaxsning nuqsoni emas, balki jamiyatning yetarli darajada moslashmaganligi oqibati sifatida talqin qiladi (Zaks, 2023). Ijtimoiy modelga ko'ra, insonni uning sog'liq holati emas, balki jismoniy infratuzilma va munosabatlardagi inklyuzivlikning ta'minlanmaganligi nogiron qiladi.

1976-yilda Union of the Physically Impaired Against Segregation tomonidan qabul qilingan "Nogironlikning asosiy tamoyillari" hujjati ushbu modelni keng tarqatdi. Bu yondashuv diskriminatsiyaga qarshi qonunchilik va jamoatchilik ongini oshirish borasida muhim yutuqlarga olib keldi. Biroq Oliver (2013) ta'kidlaganidek, ijtimoiy model mukammal nazariya emas, balki ijtimoiy o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi amaliy vosita sifatida ishlab chiqilgan.

3.3. Ekologik tizimlar nazariyasi (Ecological Systems Theory)

Urie Bronfenbrenner tomonidan ishlab chiqilgan ekologik tizimlar nazariyasi inklyuziyani yanada kengroq va tizimli tushuntirishni taklif etadi. Ushbu nazariyaga ko'ra inson rivojlanishi uning turli ijtimoiy va madaniy muhitlar bilan o'zaro ta'siri orqali shakllanadi (El Zaatari va Maalouf, 2022). Bronfenbrenner quyidagi tizimlarni ajratadi: mikrotizim (oila, maktab), mezotizim (muhitlar o'rtasidagi aloqalar), ekzotizim (bilvosita omillar), makrotizim (madaniy qadriyatlar va qonunlar) va xronotizim (vaqt davomida yuz beradigan o'zgarishlar).

Ekologik yondashuv inklyuziv pedagogika bilan uyg'un bo'lib, xilma-xillikni o'rganishning tabiiy qismi sifatida qabul qiladi va tuzilmaviy hamda munosabatdagi to'siqlarni bartaraf etishni talab qiladi.

3.4. Zamonaviy tendensiyalar va texnologik innovatsiyalar

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda inklyuziv ta'limda bir qancha innovatsion tendensiyalar kuzatilmoqda: individual ta'lim rejalari, kashfiyot imkoniyatlari, hamkorlikda o'rganish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish. Raqamli texnologiyalarni faol joriy etish natijasida raqamli inklyuzivlik vujudga kelmoqda; Frantsiyada audioskan texnologiyalari, Shotlandiyaning Glazgo universitetida nogironligi bor talabalar uchun maxsus ko'maklashish bo'limlari buning yorqin misolidir.

Uch xil inklyuzivlik turi – raqamli inklyuzivlik, ijtimoiy inklyuzivlik va inklyuziv mehnat – ta'lim tizimidagi inklyuzivlik bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi. Ta'lim tizimida inklyuzivlikni ta'minlamasdan turib, ushbu barcha yo'nalishlarda samaraga erishish imkonsizdir

4. MUHOKAMA (DISCUSSION)

Olingan natijalar asosida quyidagi muhim xulosalar chiqarish mumkin. Birinchidan, uchta model – tibbiy, ijtimoiy va ekologik – bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlar sifatida ko'rilishi zarur. Tibbiy modelni butunlay rad etish xato bo'lar edi, chunki ayrim nogiron shaxslar tibbiy yordamni qadrlaydi (Zaks, 2023). Biroq, ijtimoiy modelning ta'kidlaganidek, asosiy muammo normallashtirish talabi – jamiyatning moslashtirilmagan muhiti – bilan bog'liqdir.

Ekologik tizimlar nazariyasi esa faqat bitta darajaga (masalan, sinfxona muhitiga) e'tibor qaratish yetarli emasligini ko'rsatmoqda – inklyuzivlikni ta'minlash uchun makrotizim (qonunchilik), mezotizim (oilam-maktab hamkorligi) va mikrotizim (sinf muhiti) darajalarida bir vaqtda islohotlar o'tkazish zarur.

Tadqiqot natijalarining O'zbekiston uchun ahamiyati alohida diqqatga sazovordir. Ijtimoiy davlat tamoyillari asosida rivojlanayotgan O'zbekiston uchun inklyuziv ta'limning ijtimoiy modelidan foydalanish mantiqiy ahamiyatga ega. Qonunchilik bazasini mustahkamlash, ekologik yondashuv asosida ta'lim tizimining barcha qatlamlarini inklyuzivlashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilishi zarur. Tadqiqotning cheklovlari sifatida shuni ta'kidlash kerakki, maqolada asosan G'arb va Skandinaviya kontekstidagi modellar tahlil qilingan. Osiyo va postsovet mamlakatlari tajribasini qiyosiy o'rganish kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, inklyuziv ta'limda texnologiyalarning roliga oid empirik tadqiqotlarni kengaytirish ham zarur.

Xulosa qilib aytganda, inkluziv ta'lim sohasini mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolardan holi qilish, sohada tizimli hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun yuqorida tahlil qilingan inkluziv ta'lim modellarini ta'lim tizimiga keng joriy etish va ommalashtirish zarur. Xususan, ekologik va ijtimoiy modellar ta'lim muassasalarida, avvalo, ta'lim oluvchilarning manfaatlari ustuvor bo'lishini ifoda etadi. Jahon amaliyotiga nazar tashlasak, Ispaniya, Finlandiya va Skandinaviya mamlakatlari kabi O'zbekiston ham ijtimoiy davlat tamoyillari asosida o'z davlatchiligini mustahkamlash hamda buni qonunchilikda aks ettirish yo'lidan borayotganini ko'rish mumkin. Shu nuqtai nazardan,

ijtimoiy davlat barpo etayotgan mamlakatlarda inkluziv ta’limning ijtimoiy modelidan foydalanish mantiqiy ahamiyatga egadir. O‘z navbatida, inkluziv ta’limning ijtimoiy modeli ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda, tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishda hamda qaror qabul qilishdan tortib, ularni ijro etishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarda mo‘tadil muhit yaratilishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Barnes, C. (1996). Theories of disability and the origins of the oppression of disabled people in western society. In L. Barton (Ed.), *Disability and Society: Emerging Issues and Insights*. Longman.
2. Bronfenbrenner, U. (1979). *The Ecology of Human Development*. Harvard University Press.
3. El Zaatari, W., & Maalouf, I. (2022). How the Bronfenbrenner Ecology of Human Development Theory Shapes Our Understanding of Child Development. *Journal of Education and Practice*, 13(5), 1–9.
4. Oliver, M. (2013). The Social Model of Disability: Thirty Years On. *Disability & Society*, 28(7), 1024–1026.
5. Zaks, J. (2023). *Rethinking Disability: A Disability Studies Approach to Inclusive Practices*. Routledge.
6. LinkedIn. Innovations in Inclusive Classroom. <https://www.linkedin.com/pulse/innovations-inclusive-classroom-moving-away-from-approach-bhatia/>
7. The Irish Times. (2024, March 6). Disability, Education and Inclusive Routes. Pg. 11.